

**“GIPOTIREOZ BILAN OG‘RIGAN AYOLLARDA GORMONAL
DISBALANSNING REPRODUKTIV TIZIMGA TA’SIRI: SURXONDARYO
VILOYATI MISOLIDA PROFILAKTIK CHORALAR”**

Yo’ldosheva N.T., Xolova Z.B., Azamkulova. N.O

Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Termiz filiali

Mavzuning dolzarbligi. Gipotireoz reproduktiv yoshdagi ayollarda ayollar orasida keng tarqalgan muhim endokrin kasalliklardan biri bo‘lib, u hayz sikli buzilishlari, ovulyator disfunksiya, bepushtlik hamda homiladorlikdagi asoratlarni rivojlanishga olib keladi. Endemik hudud, hisoblangan Surxondaryo viloyatida yod tanqisligi bilan bog‘liq qalqonsimon bez kasalliklarining uchrash chastotasi yuqori bo‘lib, bu holat ayollar reproduktiv salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois gipotireozning reproduktiv tizimga ta’sirini o‘rganish va samarali profilaktik choralarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi .

Tadqiqotning maqsadi. Surxondaryo viloyatida gipotireoz bilan og‘rigan ayollarda yuzaga keladigan gormonal o‘zgarishlarning reproduktiv tizimga ta’sirini kamaytirishga qaratilgan yangi profilaktik choralarni takomilashtirish.

Tadqiqot materiali va usullari. Tadqiqot Surxondaryo viloyatining birlamchi davolash profilaktika muassasalari va ixtisoslashtirilgan markazlarida kuzatuv ostiga olingan 18-45 yoshdagi 100 nafar reproduktiv yoshdagi ayollar orasida o‘tkazildi. Tekshiruv davomida klinik-anamnestik ma’lumotlar, gormonal ko‘rsatkichlar (TRG, T3, T4, prolaktin), UTT, hayz sikli holati, va ginekologik anamnez baholandi. Olingan natijalar statistik tahlil qilindi.

Natijalar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, hayz sikli buzilishlari ayollarning 65 % ida aniqlanib, ularning 40 % ida oligomenoreya, 15 % ida amenoreya, 10 % ida esa menorragiya va dismenoreya qayd etildi. Reprodukativ tizimda endometriy qalinligining o‘zgarishi, follikulalar rivojlanishining susayishi hamda ayrim hollarda tuxumdon kistalarining mavjudligi aniqlandi. Tadqiqot ishtirokchilarining 20 % ida gipotireoz bilan bog‘liq bepushtlik xavfi aniqlanib, ushbu ko‘rsatkich uzoq muddat davolanmagan gipotireoz bilan og‘rigan ayollarda yuqoriroq ekanligi kuzatildi.

Xulosa. Gipotireoz ayollarda hayz sikli buzilishlari, ovulyator disfunksiya va bepushtlik rivojlanish xavfini oshiruvchi muhim endokrin kasalliklardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari gipotireozni erta aniqlash, endokrinolog va ginekolog tomonidan kompleks yondashuv asosida kuzatuv olib boorish, yod tanqisligini bartaraf etish hamda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish reproduktiv asoratlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.